

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA KRIMINAL ASARLAR TARIXI

Sultonova Dilnoza Sohibjonovna

Namangan davlat universiteti, Jahon tillari
fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)
dilnozasultonova@748gmail.com

Annotatsiya “Kriminal asarlar tarixi” mavzusidagi maqola adabiyot tarixining o‘ziga xos yo‘nalishlarini yoritadi. Ushbu maqolada o‘zbek va jahon adabiyotida kriminal janrning shakllanishi, rivojlanishi va uning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Kriminal asarlarning tarixi qadimgi davrlardan boshlab, asosan jinoyat, tergov, sirli voqealar va ularga bog‘liq psixologik omillarni o‘rganadi. Maqolada o‘zbek adabiyotidagi kriminal janrning o‘ziga xos o‘rni va yirik yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlar, shuningdek, jahonda eng mashhur kriminal asarlar va ularning tasvirlash uslublari ko‘rib chiqiladi. Bu asarlar o‘z vaqtida ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillarni aks ettirgan bo‘lib, ular hozirgi kungacha keng o‘qiladi va talqin qilinadi. Maqola, shuningdek, kriminal janrning o‘ziga xos xususiyatlari, uning o‘zgarishi va jahon adabiyotida bu janrning ahamiyatini hamda uning o‘zbek adabiyotidagi ta‘sirini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Kriminal janr, adabiyot tarixi, jinoyat asarlari, o‘zbek adabiyoti, jahon adabiyot

HISTORY OF CRIME FICTION IN UZBEK AND WORLD LITERATURE

Abstract The article on the topic “History of Crime Works” covers specific areas of the history of literature. This article analyzes the formation, development and main features of the crime genre in Uzbek and world literature. The history of crime works, starting from ancient times, mainly studies crime, investigation, mysterious events and psychological factors related to them. The article examines the specific role of the crime genre in Uzbek literature and the works created by great writers, as well as the most famous crime works in the world and their descriptive styles. These works reflected the socio-political and cultural factors of their time, and they are widely read and interpreted to this day. The article also analyzes the specific features of the crime genre, its changes and the significance of this genre in world literature, as well as its influence on Uzbek literature.

Keywords: Crime genre, history of literature, crime works, Uzbek literature, world literature

ИСТОРИЯ КРИМИНАЛЬНОЙ ПРОЗЫ В УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация Статья на тему «История криминальных произведений» охватывает отдельные направления истории литературы. В данной статье анализируются становление, развитие и основные черты криминального жанра в узбекской и мировой литературе. История криминальных произведений, начиная с древних времен, в основном изучает преступления, расследование, таинственные события и психологические факторы, связанные с ними. В статье рассматривается специфическая роль криминального жанра в узбекской литературе и произведения, созданные великими писателями, а также самые известные криминальные произведения в мире и их описательные стили. Эти произведения отражали социально-политические и культурные факторы своего времени, и они широко читаются и интерпретируются по сей день. В статье также анализируются специфические черты криминального жанра, его изменения и значение этого жанра в мировой литературе, а также его влияние на узбекскую литературу.

Ключевые слова: Криминальный жанр, история литературы, криминальные произведения, узбекская литература, мировая литература

KIRISH:

O‘zbek va jahon adabiyotida kriminal asarlar tarixi keng va rang-barang bo‘lib, turli davrlar va madaniyatlarda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu janrning rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, adabiy oqimlar va o‘quvchilarning estetik talablari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili:

O‘zbek adabiyotida kriminal janri o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. XVII-XIX asrlarda o‘zbek va turkman shoirlari tomonidan yaratilgan asarlarda jinoyat va uning oqibatlari tasvirlangan. Masalan, Sobir Sayqaliyning “Shayxul-Islom” asarida ijtimoiy adolatsizlik va jinoyatlarning oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy “Sab’al sayyor” dostonida shoh Bahromning jinoyatlari va uning jazosi haqida hikoya qilgan.

XX asrda o‘zbek adabiyotida kriminal janri yanada rivojlanib, Tohir Malikning "Shaytanat" kabi asarlari bilan boyidi. “Shaytanat” pentalogiyasi o‘zining falsafiy chuqurligi, syujet va kompozitsiya tuzilishidagi qiziqarli jihatlari bilan e’tiborni tortadi. Ushbu asar “Jinoyat va jazo”, “Iblislar”, “Qimorboz” va «Aka-uka Karamazovlar» kabi asarlarga o‘xshash yuksak ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega.

Jahon adabiyotida kriminal janri XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlanishni boshladi. Bu davrda psixologizm ruhi bilan sug‘orilgan asarlar paydo bo‘ldi. Detektiv-izquvarlik mavzusiga oid asarlar yaratishga ham e’tibor ortdi. Bu janrni birinchilardan bo‘lib Artur Konan Doyl boshladi.

Agata Kristi, XX asrning eng mashhur detektiv yozuvchilaridan biri, o‘zining “O‘g‘irlangan million dollar” kabi asarlari bilan tanilgan. Ushbu asar bir-biridan qiziqarli, sirliligi bilan kitobxon e’tiborini tortadi.

Jahon adabiyotida kriminal janri o‘zining xilma-xilligi va chuqurligi bilan ajralib turadi. Ushbu janr orqali inson tabiatining qorong‘u tomonlari, ijtimoiy adolatsizliklar va insoniy munosabatlarning murakkabligi tasvirlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: **Tarixiy-metodik yondashuv:** Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri tarixiy-metodik yondashuv bo‘lib, bu janrning tarixiy rivojlanishini va o‘zgarishini o‘rganishga qaratilgan. **Lug‘aviy-tilshunoslik tahlili:** Kriminal asarlardagi til va uslub o‘rganiladi. Bu metod orqali asarlardagi maxsus terminlar, jinoyat, tergov va jinoyatchilik bilan bog‘liq atamalar tahlil qilinadi. **Psixologik tahlil:** Kriminal asarlardagi personajlar, ularning ruhiy holati va xulq-atvori psixologik tahlil orqali o‘rganiladi. Bu metod, asarlar orqali jinoyatchilikni va uning psixologik sabablari, shuningdek, jinoyatchilarning motivlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. **Komparativ tahlil:** O‘zbek va jahon adabiyotida kriminal janrining o‘ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi. **Intertekstual tahlil:** Kriminal asarlarda boshqa janrlar va avvalgi adabiy an‘analalar bilan bog‘lanishlar o‘rganiladi. O‘zbek va jahon adabiyotidagi kriminal asarlar, masalan, sotsialistik realizm, ekzistensializm yoki boshqa janrlar bilan o‘zaro aloqalari tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar:

Jinoyat va jinoyatchining jazolanishiga oid asarlar tarixi juda qadimiydir. Insoniyat yaralgandan buyon kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda, jamiyatda adolat, tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun muayyan qonunlar, qoidalar yaratilgan. Ularni buzgan kishilar aniqlanib jazoga tortilgan va shu orqali jamiyatda tartib saqlangan. Har qanday davrdagi adabiy asarlarda jinoyat elementlari va jinoyatchini topib jazolashga oid lavhalar mavjud. Xalq og‘zaki ijodida ham, turli diniy kitoblardagi afsona va rivoyatlar orasida ham ana shunday mavzudagi asarlar talaygina.

Ingliz olimi Jon Skaggs o‘zining “Crime fiction” asarida dastlabki mif va rivoyatlardagi jinoyat va uning taftishiga oid badiiy asarlar haqida mulohaza yuritgan [1; 184].

Jumladan, muallif fikriga ko‘ra, bugungi kriminalistik asarlarning ildizlari qadimiy yodnomalar va folklorga borib taqaladi.

“Herkules va o‘g‘ri Kakus” mifologik hikoyasida Kakus o‘z ta’qibchisini chalg‘itish uchun oyoq izlarini yo‘qotish orqali dalillarni soxtalashtirishga uringan ilk jinoyatchilardan biridir [1; 184].

Herodot tomonidan naql qilingan “Qirol Ramsinit va qadimgi yunon adabiyotidagi usta o‘g‘ri haqidagi hikoya” ko‘pincha kriminalistik mavzudagi asarlar turkumidagi “qulflangan xona siri” (“locked-room mystery”) sub-janrining ilk namunasi sifatida tilga olinadi. Herodot keltirgan hikoyada ham, Herkules va Kakusda bo‘lgani kabi, o‘g‘ri qo‘lga tushmaslik uchun jinoyatga oid dalillarini soxtalashtiradi [1; 184].

Muqaddas “Injil“ kitobida uchraydigan “Suzanna va oqsoqollar” hikoyasida, ikki nopok kimsa Suzanna ismli ayolni zinokorlikda ayblab, tuhmat uyushtirishadi. Biroq Doniyor bu ikki kimsani so‘roq qilishi jarayonida ularning yolg‘on guvohliklarini fosh qiladi va Suzannaning begunoh ekanligi isbotlanadi. Hikoyaning bir qator versiyalari (bayonlari)ga ko‘ra, bu ikki tuhmatchiga qilmishiga yarasha jazo tayinlanadi: ularning o‘zlari, Muso payg‘ambarning qonunlariga muvofiq, Suzannaga qo‘llashni rejalashtirgan jazolari, ya‘ni o‘limga hukm qilinadi [2; 15].

Doniyor kitobining 14-bobida keltirilgan “Bel va Ajdaho” hikoyasi ham “Qulflangan xona siri”ning ilk namunalaridan biri sifatida baholanadi. Unda ruhoniylar: “Bel ajdahosi haykali o‘ziga qilingan nazrlarni yeb-ichadi”, deb odamlarni ishontirmoqchi bo‘ladilar. Aslida esa ruhoniylar oila a‘zolari bilan ibodatxonaga yashirin yo‘l orqali kirib, qurbonliklarni o‘zlari iste‘mol qilishardi. Doniyor ibodatxonani qulflash va muhrlashdan oldin hech kimga sezdirmay polga kul sochadi va ruhoniylar qoldirgan izlari orqali ularning aybini fosh etadi [1; 184].

“Doniyor kitobi” da naql qilingan rivoyatlarda har bir jinoyat uchun qattiq jazolar qo‘llash orqali kishilarni to‘g‘ri xulq-atvorga targ‘ib qilishga keng urg‘u berilgan. Ayni shu holat XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan jinoyat haqidagi ko‘plab asarlar, jumladan, Edgar Allan Poning hikoyalari uchun ham xarakterlidir.

Sharq adabiyotida ham aynan jinoyat haqidagi og‘zaki va yozma rivoyatlar, hikoyalar qadimdan mavjud va ularning tarbiyaviy-ma‘rifiy ahamiyati yuksak bo‘lgan.

Jinoyat va jinoyatchilar haqidagi badiiy rivoyatlar asrlar davomida yashab kelmoqda. Ko‘hna Sharqdagi kriminalistik mavzudagi asarlarning dastlabki namunalari sifatida arab tilidagi ertaklar – “Ming bir kecha” da uchraydigan ayrim ertak namunalari keltirsa bo‘ladi. Jumladan, ushbu turkumda Shahrizoda tomonidan 18-19-kechalarda so‘zlangan “Uch olma hikoyasi” ertagi ana shunday jinoyat mavzusi tasvirlangan hikoyaning ilk va yorqin misollaridir. Unda bir baliqchi Dajla daryosiga to‘r solganda, qulflangan, og‘ir sandiq to‘rga ilinadi va uni abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashidga sotadi. Saroy a‘yonlari sandiqni sindirib, uning ichida yosh bir ayolning bo‘laklarga bo‘lib tashlangan jasadini topishadi. Xalifa Horun ar-Rashid o‘zining vaziri Ja‘far ibn Yahyoga bu jinoyatni tagiga yetish va qotilni topishga uch kun muhlat beradi. Aks holda, topshirig‘ini bajara olmasa, vazirni qatl qilishini aytadi.

Albatta, mazkur asar sujeti jinoyatni taftish qilish jihatidan bir qadar primitiv (ibtidoiy) tuyuladi.

Turkiy (o‘zbek) nasrning yirik hajmli ilk namunasi – “Qisas ar-Rabg‘uziy” asari (1990) [3] da ham Odam Ato va Momo Havolarning jannatdan quvilishlarida Shaytonning o‘ch olish niyatida hiyla qilishi natijasida “bug‘doy mojarosi”ning ro‘y berish tasviri va belgilangan talab (qonun) ni buzgan Odam Ato va Momo Havoning jazo tariqasida jannatdan yerga tushirilishi; insoniyat tarixidagi ilk qotillik tasvirlangan “Qobil va Hobil qissasi”dagi odam o‘ldirilishi, uni dafn qilish va Qobilning qotilligi hamda buzg‘unchiliklarni boshlab bergani uchun nafaqat o‘zi, balki uning urug‘ining ham jazolanib, fasodga ushrashiga oid tasvirlar o‘z davrida badiiy kriminalistik asarlarning yaxshi va ta’sirchan namunasi bo‘la olganini ko‘rsatadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Qobil va Hobil haqidagi rivoyatlar, naqlar boshqa diniy kitoblarda ham uchragan (“Injil”da rivoyat qahramonlari nomi Kain va Abel tarzida beriladi). Shu bois bu rivoyatning jinoyat mavzusidagi asarlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida G‘arb mutaxassislari ham turlicha qarashlarni ifoda etganlar. Qolaversa, bunday asarlar tarixda jinoyat kodekslari va qonunlar ishlab chiqish, jinoyatga muvofiq jazo qo‘llash masalalarida muhim asos vazifasini ham o‘tagan.

Ingliz adabiyotshunos olimi Stefen Naytning so‘zlariga ko‘ra, Qobil va Hobil hikoyasini, jinoyat haqidagi asarda qay tariqa “jinoyatchilikni nazorat qilishi bo‘yicha g‘oyani (umid yoki orzuni) shakllantirish”ga misol sifatida keltirsa bo‘ladi [4; 202].

XIX asrda Viktoriya davrida kriminalistik adabiyot jadal rivojlandi. Ushbu mavzudagi asarlar bu davrdagi hayotiy muhit, jamiyat falsafasi, madaniyati, topqir va uddaburon noshirlari tufayli gullab-yashnadi. Viktoriya davri ma’rifatchilik va romantik davrni boshidan muvaffaqiyatli o‘tkazdi [5].

Eng yaxshi kriminalist yozuvchilar qatorida sanaladigan yana bir ijodkor britaniyalik yozuvchi Agata Kristidir. Kristi eng yaxshi asarlarida (“Puaro tergov qiladi (1924), “Kaminlar siri” (1925), “Rojer Ekroydning qatl etilishi” (1926), “N yoki M?” (1941), “Qopqon” (1954), “Ayblov guvohi” (1954) va boshqalar) jinoyat nafaqat dalillar asosida, balki qahramonlarning, chunonchi, belgiyalik izquvar Erkyul Puaroning ichki sezgirligi orqali ochiladi.

XX asr o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida detektiv unsurlarini mahorat bilan zamonaviy yozma ijodga olib kirdi.

Asarda Homidning jinoyatlarini fosh qilish uchun Otabekning nihoyatda puxtalik bilan harakat qilishi jahon detektiv adabiyotidagi izquvarlarni yodga soladi. [6].

Garchi adib Abdulla Qodiriy bevosita kriminalistik asar yaratmagan bo‘lsa-da, uning romanlarida shunday epizodlar hamda yozuvchining asar yozish uchun material tayyorlash borasidagi fikrlari bugungi kriminalist yozuvchilar uchun ham muhimdir. *Filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim o‘zining* “So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak”. Abdulla Qodiriyning o‘zbek tiliga doir qarashlari“ **sarlavhali maqolasida buyuk adibning badiiy asar uchun material yig‘ishiga doir quyidagi fikrlarini keltiradi** [7].

XULOSA:

O‘zbek va jahon adabiyotida kriminal asarlar tarixi ko‘p asrlar davomida o‘zining rang-barang va boy janrini rivojlantirib kelgan. Ularning o‘ziga xosligi, insonning ichki dunyosi, axloqiy dilemmalari, jamiyatdagi adolatsizliklar va shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi kurashni ochib berishdadir. Kriminal adabiyot asarlarida asosan jinoyat, jinoyatchilik, detektivlik va adolatsizlikka qarshi kurash mavzulari markaziy o‘rinda turadi.

O‘zbek adabiyotida ham kriminal janr o‘z o‘rnini topgan, ayniqsa, o‘ziga xos zamon va muhitda yashayotgan qahramonlar orqali milliy koloritga ega asarlar yaratilib, jamoatdagi mafkura va axloqiy nuqtai nazardan bo‘lgan konfliktlar tasvirlangan. Jahon adabiyotida esa,

Agata Kristi, Artur Konan Doil kabi mashhur yozuvchilar o‘zlarining detektiv asarlari bilan bu janrni dunyoga tanitdilar.

Kriminal asarlarning asosiy maqsadi, ko‘pincha inson ruhining qorong‘u tomonlarini ochish, uni sinovdan o‘tkazish va adolatni tiklashga qaratilgan. Bu janr o‘zining hayotiy, hissiyotli va tez rivojlanayotgan syujetlari bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Demak, kriminal asarlar tarixi nafaqat jinoyatlarni tasvirlash, balki insoniyatning murakkab ijtimoiy va axloqiy masalalarini tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Scaggs J. Crime Fiction. 1st edn. Taylor and Francis. 2005. – P. 184.
2. Philips B. Crime Fiction: A Global Phenomenon. IAFOR Journal of Literature & Librarianship, Volume 5 – Issue 1 – Autumn 2016. – P. 5-15.
3. A Summary and Analysis of the Cain and Abel Story // <https://interestingliterature.com/2021/07/bible-cain-and-abel-story-summary-analysis/>
4. Stephen K. Form and ideology in crime fiction. Bloomington: Indiana University Press. 1980. – P. 202.
5. [Webb J. What is Victorian crime fiction?](https://ruggedthuglife.com/victoria/what-is-victorian-crime-fiction) // <https://ruggedthuglife.com/victoria/what-is-victorian-crime-fiction> December 13, 2021
6. Rahimov Z., Talaboyeva M. Milliy detektivning shakllanish omillari //“Sharq yulduzi”, 2014–1
7. Karim B. “So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak”. Abdulla Qodiriyning o‘zbek tiliga doir qarashlari. // <https://daryo.uz/2021/04/10/soz-soylashda-va-ulardan-jumla-tuzishda-uzoq-andisha-kerak-abdulla-qodiriyning-ozbek-tiliga-doir-qarashlari> 10.04.2021, 15:10